

**INDORAMA**



## UAL'S TRADE UNIONS JOURNEY

### ABSTRACT

“Indorama Agro” MChJ XKsi Kasaba uyushmalari bosqichlari

HR Team

2020-23

## **IALning kasaba uyushmalari bosqichlari**

Ushbu hujjatning maqsadi hozirgi kunga qadar "Indorama Agro" MChJ XKning kasaba uyushmalari bosqichlari haqida qisqacha ma'lumot berishdir.

"Indorama Agro" MChJ XK (IAL) do'stona, shaffof va samimiy ish muhitiga ega bo'lish maqsadida Kasaba uyushmalari (KU) organlari bilan bevosita hamkorlik qiladi. Ushbu ma'lumotda, biz IAL va Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlari kasaba uyushmalarining bosib o'tgan yo'lini tasvirlab beramiz. IALda har bir viloyatda bittadan - ikkita turli kasaba uyushmalari mavjud. Ayni paytda Qashqadaryo kasaba uyushmasi O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasiga, Sirdaryo kasaba uyushmasi O'zbekiston agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashiga a'zo.

### **Kasaba uyushmasining tashkil etilishi va e'tirof etilishi: Qashqadaryo**

2020-yil yanvar oyida janob Avaz Boboev boshchiligidagi beshta a'zodan iborat Qashqadaryoda birinchi kasaba uyushmasini mehnat jamoasi vakillari tanlovi asosida tashkil etiidi. (1-ilova). Kompaniyada - xodimlarning haq-huquqlarini himoya qilish organi tashkil etilganligi – muhim qadam bo'ldi.

Shundan so'ng Qashqadaryo kasaba uyushmasi (KU) tomonidan "Ichki mehnat tartib-qoidasi" (2-ilova) jamoa shartnomasi (3 va 4-ilovalar) imzolandi hamda Qashqadaryo KUsi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lganligi haqidagi guvohnomaga (2020-yil 19-maydagi guvohnoma, 5-ilova) ega bo'ldi va O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasiga a'zo bo'ldi (ro'yxat raqami (81-son, 2020-yil 27-novabr, 6-ilova).

Qashqadaryo KU bosqichlarini qisqacha bayoni:

#### **Yil - 2020**

- **15 yanvar:** IAL Qashqadaryo mehnat jamoasi konferensiyasi KU qo'mitasini tuzish va saylash bo'yicha protocol
- **1 aprel:** Qashqadaryoda ichki mehnat tartib qoidalari (IMTQ) imzolandi.
- **19-may:** Qashqadaryo KU yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma.
- **24 noyabr:** IAL Qashqadaryo mehnat jamoasi konferentsiyasi protokoli – Jamoa shartnomani tasdiqlash to'g'risida (JSh, 2021-2023)
- **27 noyabr:** Qashqadaryo KU O'zbekiston Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasida rasman ro'yxatdan o'tdi.

#### **Yil - 2023**

- **27 sentyabr:** 2023 – 2025 yillarga mo'ljallangan jamoa shartnomasi (6.1-ilova) (Qashqadaryo viloyati JShni tasdiqlash to'g'risida IAL mehnat jamoasining yig'ilish bayoni, 2023-yil 27-sentabr, 6.2-ilova)
- **30 sentyabr:** 2023 yilgi Ichki mehnat qoidalari (6.3-ilova)

### **Kasaba uyushmasining tashkil etilishi va e'tirof etilishi: Sirdaryo**

Sirdaryoda 2018-yildan buyon ro'yxatdan o'tmagan kasaba uyushmasi mavjud bo'lib, ish beruvchi – "IAL" kompaniyasi uning rasman tan olingani haqida hech qanday ma'lumot olmagan. Qashqadaryo kasaba uyushmasi davlat ro'yxatidan o'tkazilib, qonuniy tan olinganidan so'ng u o'z vakolatini kengaytirdi. Qashqadaryo kasaba uyushmasi 2020-yil 15-yanvar kuni

Mamarasulov Akmal boshchiligidagi ushbu viloyat mehnatkashlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida navbatdagi kasaba uyushmasini Sirdaryo viloyatiga ham o'z ta'sirini kengaytirdi. IAL Qashqadaryo KU va uning vakolati kengayishini ham tan oldi.

### **Yil – 2018**

- **3 dekabr:** 2019-2021 yillar uchun jamoa shartnomasi - ish beruvchi va KU tomonidan tasdiqlangan (7-ilova).

Biroq 2021-yil boshida IALning Sirdaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan hodimlarining Qashqadaryo kasaba uyushmasidan ajralib chiqib, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasiga (FTU) aloqasi bo'limgan o'z mustaqil kasaba uyushmasini tuzish istagini bildirdilar.

IAL ishchilari 2021-yil 27-mart kuni konferensiya chaqirdi. Konferensiya yakunida IAL KU qo'mitasiga 11 nafar a'zo tanlandi. Qo'mita raisligiga Abdurazzoqova Adolat xonim, rais o'rinnbosari etib Agaidarova Roza tayinlandi. (8-ilova).

Kasaba uyushmasi IALga Agrosanoat xodimlari kasaba uyushmasi (AXKU) tarkibiga kirganligini tasdiqlovchi xat yubordi. Xatda, shuningdek, IALdan kasaba uyushmasi bilan ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha muzokalararni boshlash so'rangan. Ushbu hamkorlik ish beruvchi va xodimlarning vakillari o'tasidagi ijtimoiy, mehnat, iqtisodiy, huquqiy va kasbiy masalalarni qamrab oladi. (9-10-ilovalar).

Ishchilarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida kasaba uyushmasi va uning vakillari bilan zarur muzokalarlar olib borildi. Shuningdek, Jamoa shartnomasi, (11-ilova), Ichki mehnat qoidalari (12-ilova) va mehnat faoliyatini tartibga soluvchi boshqa ichki hujjatlar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

### **Yil - 2021**

- **27 mart:** Sirdaryo KUni tashkil etish va KU raisi va a'zolarini saylash qarori qabul qilindi.
- **29 mart:** IAL KU O'zbekiston agrosanoat xodimlari kasaba uyushmasi Guliston shahar (Sirdaryo viloyati) boshqaruviga ro'yxatdan o'tkazish uchun xat yuborildi.
- **31 mart:** O'zbekiston Agrosanoat xodimlari kasaba uyushmasi Guliston shahar (Sirdaryo viloyati) Kengashining "Indorama Agro" MChJ va Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Guliston shahar boshqarmasi o'tasida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yish to'g'risidagi xati.
- **16 iyul:** 2021-2023 yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi (Sirdaryo, 2021 yil) tasdiqlandi.
- **16 iyul:** Tasdiqlangan Ichki mexnat qoidalari IMQ (Sirdaryo, 2021 y.).

Agrok kompleks xodimlari kasaba uyushmasi (AXKU) qoshida tuzilgan Kasaba uyushmasi ochilishi bilan IAL Sirdaryodagi yangi tashkil etilgan kasaba uyushmasi bilan hamkorlik aloqalarini yolga qo'ydi. Birinchi marta saylangan mazkur kasaba uyushma a'zolari kasaba uyushmasini boshqarish, uning manfaatlarini ifodalash, xodimlarning muammolarini hal etish, ish beruvchilar bilan samarali muloqot qilish bo'yicha etarli tajribaga ega emas edi.

Qo'llab-quvvatlash zarurligini tushungan holda, IAL kasaba uyushmalari faoliyatining barcha jabhalari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatib, kasaba uyushmasi va ish beruvchi munosabatlari va xodimlar a'zolari bilan samarali muloqot o'rnatdi. KU a'zolarini barcha tarkibiy va ishlab-chiqarish bilan bog'liq barcha yig'ilishlar va jarayonlarga faol jalb qilgan holda, biz kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o'tasidagi munosabatni mustahkam, sog'lom, shaffof va

ishbilarmonlik muhitini ta'minlash maqsadida, ishonch bilan bu mas'uliyatni o'z zimmamizga oldik.

Roza Agaydarova, 2022-yilning may oyida, farzandlarini o'qishi sababli Toshkent shahriga ko'chib o'tishi zarurligini bildirib ariza berdi va iloji bo'lsa Toshkent ofisiga o'tkazishni iltimos qildi. Kompaniya rahbariyati uning iltimosini qondirdi.

2022-yil 23-iyun kuni IAL Sirdaryo organi vakillaridan KU qo'mitasining tegishli protokolini ilova qilgan holda (13-ilova) xat oldi (14-ilova). Xatda IALning ayrim xodimlari, Roza Agaydarova Toshkent ofisiga ishga o'tganligidan foydalangan holda, KU raisi va a'zoligiga noqonuniy ravishda o'ziga tegishli bo'lgan shahslarni saylab qo'yishga urinayotkanliklari haqida habar berilgan. Ushbu xatda, 23-iyun kungi mehnat jamoasi yig'ilishining bayoni asosida, vaqtincha, belgilangan tartibda saylov o'tkazilib, yangi Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va a'zolari saylangunga qadar, Sherzod Aliboev vaqtincha KU raisi vazifasini bajarishi to'g'risida qaror qabul qilinganligi xaqida habar berildi.

Ushbu qarorlar mehnat jamoasi va kasaba uyushma a'zolari o'rtasidagi kelishuvga asoslangan ichki qarorlar ekanligini baholab, IAL KU rahbarligidagi o'zgarishlarni qabul qildi (15-ilova). IAL, shuningdek, 2021-yilda tashkil etilgan kasaba uyushmasi o'z kuchini saqlab qolganligini yana bir bor tasdiqladi va u bilan hamkorlikni davom ettirishdan manfaatdor ekanligimizni bildirdi. Agar IALga Kasaba uyushmasi tomonidan belgilangan tartibda, amaldagi qonun doirasida saylangan shahslar to'g'risida rasmiy ma'lumot taqdim etilsa, IAL hamkorlikka tayor ekanligini ham bildirdi.

11 kishidan iborat kasaba uyushma qo'mitasi a'zolari tarkibida katta o'zgarishlar ro'y berdi, chunki avvalgi a'zolarning aksariyati boshqa ishga o'tish munosabati bilan a'zolikdan chiqib ketishdi. 2022-yil 8-avgust kuni kasaba uyushmasi IALga saylov va tayinlash jarayoni bilan bog'liq barcha zarur hujjatlar va protokollarni ilova qilgan holda batatsil xat yubordi. Xatda aytishicha, 2022 yil 6 avgustda IAL mehnat jamoasining konferentsiyasi bo'lib o'tdi, unda 11 kishidan iborat yangi qo'mita a'zolari saylandi. Sherzod Aliboyev 5 yillik muddatga qo'mitaning yangi raisi etib tayinlandi. (16-17.1-ilovalar). IAL KU tarkibidagi o'zgarishlarni tan oldi va hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini bildirdi. Binobarin, bu Sirdaryoda yangi tarkibdagi kasaba uyushma organi tashkil etilganidan darak berdi.

## **Yil - 2022**

- **6 avgust:** "Indorama Agro" MChJ XK ishchilarining "Saylov o'tkazish tartibi" konferensiyasi
- **6 avgust:** IAL (Sirdaryo) KU Qo'mitasi raisi va a'zolarini qayta saylash bo'yicha konferentsiya bayoni.

## **Yil - 2023 yil**

- **16 sentyabr:** IAL (Sirdaryo) mehnat jamoasi qayta saylov o'tkazish konferensiyasi (qarorlar va 2022 yil 6 avgustdagи Jamoa shartnomasini ma'qullash) (18 – 18.1-ilova).
- **27 sentyabr:** 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi (Sirdaryo, 2023 yil) tasdiqlangan (19-ilova)
- **27 sentyabr:** Tasdiqlangan IMTQ (Sirdaryo, 2023 y.) (20-ilova)

Kasaba uyushmasi murojaatiga ko'ra, IAL kasaba uyushma qo'mitasi uchun mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha maslahatchi (Sirdaryo viloyat kasaba uyushmasi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha bo'lim mudiri Dilmurod Pirmanov) kompaniya mablag'i hisobidan jalg qilishga ko'maklashdi. Bundan tashqari, IAL kasaba uyushma qo'mitasi uchun to'liq jihozlangan maxsus xona ajratdi.

### **IALda Ish beruvchi va Hodimlar o'tasida o'zaro hurmatga asoslangan aloqalarni saqlashda kasaba uyushmasining roli**

Kasaba uyushmasi maslahatlashuvlarda faol ishtirok etib, foydali maslahatlar berib, NUW (Nano Unit Workers) dan NUCs (Nano Unit Contractors) ga o'tishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Manfaatdor tomonlarning sakkizta asosiy uchrashuvidagi ijobiy muzokaralar NUC (Nano Unit Contractors) tizimini qabul qilishga olib keldi. Kasaba uyushmasi qo'mitasi xodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, shu jumladan mehnat sharoitlarini, jamoaviy kelishuvlar va uyushmalar erkinligini himoya qiladi hamda ish beruvchi va mehnat jamoasi o'tasida kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq mehnat nizolari, yarashuv va hakamlik sudlarida ishtirok etadilar. Uyushmaning majburiyatlar ESMS (Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv tizimi) (1.5, 3.1.6, 7.4.2, 7.4.3, 7.4.4, 7.4.7) va manfaatdor tomonlarni jalg qilish rejasiga (1.4.1, 1.4-bandlar) bilan u'g'unlashadi (3, 2.1 va 5.1-jadval).

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har doim tizim yoki kasaba uyushmasidan to'liq qoniqmaydigan guruhlar ham bor va norozi shahslar oddiy xodimlar yoki kasaba uyushma a'zolari ichida ham bo'lishi mumkin. Ba'zida bunday holatlar shaxsiy manfaat ko'zlagan shaxslarning birlashib Indoramaga qarshi asossiz da'volarni tarqatishiga yo'l ochadi.

IAL shuningdek, barcha ichki va tashqi manfaatdor tomonlarimiz bilan muloqotga ochiq. Ishlab chiqarish munosabatlarining nozik xususiyatini hisobga olgan holda, bizdan ma'lumotlarni o'zlashtirishda juda ehtiyojkorlik talab etiladi. Shunga ko'ra, biz har qanday ma'lumotni qabul qilishdan oldin uning to'g'riliqi va ishonchligini tekshirishimiz shart. IAL kasaba uyushmalari organlari bilan ochiq va bevosita muloqotni davom ettirish tarafidori. Shu sababli, istalgan vaqtida yoki tegishli kanallar orqali ahborot olishni istagan manfaatdor tomonlarga doim ochiqligimizni bildilariz.

### **Ilovalar:**

**1-ilova.** Qashqadaryo mehnat jamoasi konferensiyasi - KU qo'mitasini shakllantirish va saylash bo'yicha 2020-yil 15-yanvar.

**2-ilova.** 2020-yil 1-apreldagi Qashqadaryo ichki mehnat tartib qoidalari (IMTQ).

**3-ilova.** Jamoa shartnomasini tasdiqlash bo'yicha IAL Qashqadaryo mehnat jamoasi konferensiyasi 24.11.2020 y.

**4-ilova.** 24.11.2020 yildagi tasdiqlangan Jamoa shartnomasi (Qashqadaryo) 2021-2023 yillar

**5-ilova.** Qashqadaryo KU yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, 2020-yil 19-may (tarjimasi bilan)

**6-ilova.** Qashqadaryo KU O'zbekiston tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kasaba uyushmalari Respublika kengashida 2020-yil 27-noyabrda 81-son bilan rasman ro'yxatga olingan.

**6.1.- ilova:** Jamoa shartnomasi Qashqadaryo 2023-2025

**6.2-ilova.** Qashqadaryo viloyati mehnat jamoasining 2023-yil 27-sentyabrdagi Jamoa shartnomasini tasdiqlash to'g'risidagi bayoni

**6.3-ilova.** Ichki mehnat tartib qoidalari Qashqadaryo 2023 yil

**7-ilova.** Ish beruvchi va KU tomonidan 2018-yil 3-dekabrda tasdiqlangan 2019-2021 yillarga mo'ljallangan JA (Sirdaryo)

**8-ilova.** 27.03.2021 yildagi qarori (4) bilan Sirdaryo KU tashkil etish va KU raisi va a'zolarini saylash bayoni

**9-i洛va.** KUni O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari Giliston shahar (Sirdaryo viloyati) Kengashiga ro'yxatdan o'tkazish uchun 2021-yil 29-martdagi xati.

**10-i洛va.** O'zbekiston Agrosanoat majmui xodimlari kasaba uyushmasi Guliston shahar kengashining (Sirdaryo viloyati) 2021-yil 31-martdagi "Indorama Agro" MChJ va Agrosanoat xodimlari kasaba uyushmasi o'tasida ijtimoiy sheriklikni yo'lga qo'yish to'g'risidagi xati.

**11-i洛va.** 2021-2023 yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi (Sirdaryo) tasdiqlangan, 16.07.2021 y.

**12-i洛va.** Tasdiqlangan IMTQ (Sirdaryo, 2021 y.), 16.07.2021 y.

**13-i洛va.** Vaqtinchali saylangan KU raisi (Syrdarya) va 2022-yil 23-mayda o'tkazilgan saylovlarining noqonuniyligi to'g'risida IALga KUNing xati

**14-i洛va.** KU qo'mitasining 2021 yil 22 iyundagi protokoli (o'tkazilgan saylovlarining noqonuniyligi va KU vaqtincha rais vazifasini Sh. Aliboev bajarishi to'g'risida

**15-i洛va.** IAL vaqtincha KU bilan muzokaralar olib borishga tayyorligi to'g'risidagi IALni xati (tarjima bilan)

**16-i洛va.** "Indorama Agro" MChJ XK mehnat jamoasini konferentsiyasini (Sirdaryo) o'tkazish TARTIBI, 2022 yil 06 avgust.

**17-i洛va.** IAL (Sirdaryo) KUsi raisi va a'zolarini saylash to'g'risidagi 2022 yil 6 avgustdagi bayoni

**17.1-i洛va.** IAL mehnat jamoasi konferentsiyasining 2022 yil 06 avgustdagi qarorlari

**18-i洛va.** IAL mehnat jamoasining 2023-yil 16-sentabrdagi Konferentsiyasi protokoli

**18.1-i洛va.** IAL mehnat jamoasining 2023-yil 16-sentabrdagi Konferentsiyasi Qarorlari

**19-i洛va.** 2023-2025 yillarga mo'ljallangan Jamoa shartnomasi (Sirdaryo, 2023 yil) tasdiqlangan, 2023-yil 27-sentabr.

**20-i洛va.** Tasdiqlangan IMTQ (Sirdaryo, 2023 yil), 2023 yil 27 sentyabr